

# Aviakompaniyaning 32 yilligi bag'ishlangan tadbir

2024 28 Yanvar

Uzbekistan Airways tashkil topganining 32 yilligi munosabati bilan bosh ofisda bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbir doirasida aviakompaniya rahbariyati barchani bayram bilan tabrikladi va ishda alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarga fuqaro aviatsiyasiga qo'shgan hissasi uchun faxriy yorliqlar topshirildi.





Taqdirlangan orasida Uzbekistan Airways xorijiy vakolatxonasi xodimlari, uchuvchi va bortkuzatuvchilar, yuk tashuvi bo'limi hamda yil davomida aviakompaniyaga o'z malakasi va shijoati va aviaqatnovlarni xavfsiz va qulay amalga oshirilishini tashkil etish hamda ish yuritishda boshqalardan ajralib turgan bir guruh xodimlar taqdirlandi.





Shuningdek, aviakompaniyada uzoq yillardan beri mehnat qilib va uning ravnaqiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan xodimlarga "Mehnat faxriysi" guvohnomasi va sovg'alar topshirildi.



